

QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING O'ZBEKISTON BYUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

Supervisor: **I.f.n. X.X.Imomov**

Tashkent State University of Economics Associate Professor of "Finance"

Rajabov Nurmuhammad Alisher oglu

Tashkent State University of Economics "Public Finance and International Finance" master's degree Phase II graduate student

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi sharoitda qo'shilgan qiymat solig'i mexanizmini takomillashtirish borasidagi ishlar to'g'risida va shuning barobarida qo'shilgan qiymat solig'i mexanizmini takomillashtirish orqali byudjet tizimida hamda byudjet tizimini byudjetlari daromadini optimal shakllantirish yuzasidan fikr-mulohazalar berilgan. Shu jumladan, mamlakatimiz byudjeti daromadlarini shakllantirishda qo'shilgan qiymat solig'ining tutgan o'rniga ham e'tibor qaratilgan.

Kalit so'z va iboralar: iqtisodiyot, qo'shilgan qiymat solig'i, byudjet, makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy islohot, bozor munosabatlari.

Hozirgi kunda iqtisodiyot sohasida jadal sur'atlar bilan yuksalish tobora taraqqiy etib bormoqda. Ayni shuning uchun ham iqtisodiyotning barcha ichki yo'nalishlari bu jarayonda faol ishtirok etadi. Xususan, qo'shilgan qiymat solig'i va u bilan bog'liq masalalar haqida so'z borar ekan, qo'shilgan qiymat solig'i mexanizmini takomillashtirish, takomillashtirish barobarida byudjet tizimini byudjetlari daromadini mavjud holatidan yanada optimal shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlash zarur bo'ladi. Mamlakatning makroiqtisodiy barqarorlikka erishish yo'lida hukumat tomonidan o'rta va uzoq kelajakka mo'ljallangan davlat dasturini amalga oshirishda, iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi va bozor munosabatlarining yanada rivojlanish sharoitida qo'shimcha qiymat solig'i mexanizmini takomillashtirish, shuning bilan bir qatorda, bu orqali byudjet tizimini byudjetlari daromadini optimal shakllantirish borasida ilg'or ishlarni amalga oshirish faqatgina foyda uchun xizmat qiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i mamlakatimiz soliq tizimida joriy qilingan soliqqa tortishning eng murakkab va ko'pqirrali, nisbatan kam takomillashgan qismi sanaladi. Bu soliq tovarlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatilganda yangi hosil qilingan qiymatdan kelib chiqib byudjet daromadiga o'tkazishning bir shakli ham deyiladi. Ana shu sabablardan kelib chiqib, qo'shilgan qiymat solig'i mexanizmini takomillashtirish orqali byudjet tizimini byudjetlari daromadini optimal shakllantirish iqtisod vakillarining mas'uliyatli vazifasiga aylanmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida davlatning yangi vazifalari paydo bo'la boshladi. Barcha davlatlarda bo'lgani kabi bizning mamlakatimizda ham soliqlar davlatimizning mudofaa qudratini, ichki va tashqi xavfsizligi, huquqni muhofaza qiluvchi tizimlarini talab darajasida tutib turishning, fuqarolarimiz huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamni qo'llab-quvvatlashdek vazifalarni bajarishning asosiy manbai, iqtisodiy rivojlantirish asoslaridan biri bo'lgan investetsiya loyihalarini amalga oshirish, ishlab chiqarishning asosiy omilidir. Davlat kuchli ijtimoiy chora-tadbirlarning ijrosini ta'minlashda, o'z fuqarolarining osoyishta turmush tarziga ega bo'lishida, mudofaa jihatdan mustahkamlikni ushlab turish uchun va shu kabi maqsadlar yo'lida mablag'larni sarf etishi tabiiy holdir. Bundayin sarf ishlarining majburiyligi ular uchun mnba hisoblangan soliqlarni, jumladan, qo'shilgan qiymat solig'ini obyektiv zaruratligini taqazo qilib qo'yadi. Byudjetni muvofiqlashtirish muammolari bozor iqtisodiyotiga asoslangan iqtisod uchun davlat tomonidan bozor iqtisodini tartibga solishda juda muhimdir. Ushbu muammolar orasida soliqlar yordamida qoplanib turiladigan byudjetning daromad qismini shakllantirish ham ahamiyatlidir. Ana shuning ham biz mamlakatimiz bo'ylab asosiy o'rinda turuvchi bilvosita soliqlarga diqqat qaratishimiz lozim.

Barcha bilvosita soliqlar singari qo‘shilgan qiymat solig‘i ham asosan soliqlarning fiskal funksiyasini bajaradi, uning joriy qilinishidan ko‘zlangan asosiy maqsad davlat byudjetini mablag‘ bilan to‘ldirish bilan bog‘liq. Qo‘shilgan qiymat solig‘i soliq tushumlarini narx-navoning o‘shishi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lab turgani uchun u byudjet mablag‘larini inflatsiya bo‘lishidan saqlab qoluvchi vositalar ro‘yxatining avvalidan joy egallaydi.

Bugungi kunga kelib qo‘shimcha qiymat solig‘i Yevropa Ittifoqiga a‘zo mamlakatlar singari davlatimizda ham davlat byudjetining daromadlarini shakllantirishda o‘z o‘rniga munosib ega bo‘lib kelmoqda. Soliqlar narxning asosiy qismini tashkil qila turib, mamlakat ichidagi ishlab chiqarish va iste’molga hamda xalqaro savdoda yetarli darajada ta’sir ko‘rsatishini inobatga olib, qo‘shilgan qiymat solig‘i, uning mexanizmini takomillashtirish, buning natijasida byudjet tizimini byudjetlari daromadini optimallik ila takomillashtirish, qo‘shimcha qiymat solig‘ining asosiy imkoniyalari va hattoki, turfa davlatlar hududlarida ularning amalda qo‘llanilishining tahlili O‘zbekiston uchun katta ahamiyatga ega hodisadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. A.Yuldashev. Soliq va soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma. «Fan va texnologiya», 2007.
2. I.A.Zavalashina. Soliqlar :nazariya va amaliyot. — T.: iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi, 2005.